

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI VARVARIZMLARNING LINGVOMADANIY ASPEKTI

Xumoraxon Begmatova Omonjon qizi

Lingvistika: Ingliz tili yo‘nalishi magistranti(FarDU)

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi varvarizmlarning lingvomadaniy tahlili va aspekti ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: psixolingvistika, kognitiv, aspekt, S.A. Kuznetsov tahlili, ong, lingvomadaniy, varvarizmlar.

Zamonaviy psixolingvistika, kommunikatsiya va kognitiv lingvistika uchun kognitiv ong tushunchasi tasnifini o‘rganish dolzarb masalalardan biri bo‘lmoqda. Ong tushunchasi zamonaviy fanning qiyin ta’riflanadigan tushunchalariga kirsada, doimiy ravishda barcha ijtimoiy va aniq fanlarning aksariyat qismi tomonidan foydalaniladi. Bu bilan birga fanda xanuzgacha tafakkur va ong atamolari o‘rtasida aniq chegaralanish mavjud emas. Bu tushunchalar, ba’zan turlicha talqin qilinib qarama – qarshi ma’nolarda berilsa, ba’zan sinonimlar sifatida ishlatiladi.

Bizning fikrimizcha, ong tushunchasi turg‘un holat jihatini, tafakkur esa dinamik aspektga urg‘u beradi. Ong bu miyaning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, tafakkur esa onnga ega bo‘lgan miyaning faoliyatidir (ya’ni tafakkur qilish fikrlash faoliyatidir). Aynan shu jihatdan biz tafakkur va ong o‘rtasidagi, bu ikki tushuncha mavjudligi sababli ular o‘rtasidagi chegarani aniqlab berish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Quyidagi izlanishda biz diqqat- e’tiborimizni ongning tilga bo‘lgan munosabatini o‘rganishga qaratamiz.

Falsafiy va psixologik adabiyotlarda ong yuqori tashkil qilingan materiyao‘z ichida hissiy va aqliy qobilyatlarni jamlagan miya xususiyati (funksiyasi) sifatida

belgilanadi. Shu bilan bir qatorda, ongning tafakkur timsollari insonning maqsadga yo'naltirilgan faoliyatini aniqlab beradi, shaxsning atrofda tabiat va ijtimoiy haqiqat bilan o'zaro munosabatini tartibga soladi, shaxsning mavjud ekanligini, ichki ma'naviy dunyosini anglab olishga imkoniyat beradi va ijtimoiy-amaliy faoliyat jarayonida voqelikni mukammallashtirish sharoitini yaratib beradi.

Ong so'zi zamonaviy tilda ko'p ma'noli so'z hisoblanadi. S.A. Kuznetsov tahriri ostidagi "Rus tilining izohli lug'ati" ong so'zini shunday izohlaydi:¹⁸

1. Tafakkurda insonning reallikni tasvirlash qobiliyati;

2. Insonga xos bo'lgan atrof voqelikni anglash va tafakkur etish; fikrlash faoliyati, aql, idrok, voqelikni ongli ravishda qabul qila olish qobiliyati (hushdan ayrilish)

3. Inson, bir guruh insonlar tomonidan ijtimoiy hayotni anglab yetish; ijtimoiy tabaqa vakillari sifatida insonlarning dunyoqarashlari.

4. Biror narsani anglash, fikr, hissiyot, his qilish (burch hissi), aniq anglash.

5. So'zlashuv nutqida onglilik (Kallang qayerda edi ?)

Shuni tushunish qiyin emaski, barcha ma'nolar so'nggi ma'noni qo'shgan holda ham ongni voqelikni aksi sifatida ko'rsatib uni turli tomondan ochib beradi holos. Bunday holda ko'p ma'nolik degan narsani nisbiy desa bo'ladi. Ong to'g'risidagi tasavvurlar turlarning ko'pligi va ongning shakillaridan kelib chiqadi.

Ongning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin: Tafakkur faoliyati bo'yicha siyosiy, ilmiy, diniy, ekologik, maishiy, tabaqaviy, estetik, iqtisodiy va xak. Ong subyektiga asosan gender yoshga oid, ijtimoiy (kaspiy, gumanitar, texnik), shaxsiy, jamoaviy, guruhli va hakoza.

Shakllanish jihatidan rivojlangan va rivojlanmagan ong; ong asosidagi tamoyilga nisbatan global, demokratik, konservativ, progressiv, reaksiyon va hakoza ongga ajratiladi; Aqliy faoliyat asosida kelib chiqadigan ko'nikmaga asosan kreativ, texnik, everestik, badiiy va hakoza.

¹⁸ Axmanova O.S. Slovar lingvichiskiy terminov, M. Se. 1966.

Shu tarzda tasnifni davom ettirish mumkin, lekin bu biz oldimizga qo‘ygan vazifaga kirmaydi. Ong turlarining barchasi “umumiy anglash “yoki” shunchaki anglash “turli ko‘rinishlarida bo‘lib, ular kompleks tarzda global korib chiqiladi. “Umumiy ong” ni uning yetakchi “bilim orttirish“ tomonini hisobga olgan holda kognitiv deb atalishi taklif qilinadi, chunki ong subyekt tomonidan voqelikni o‘rganish natijasida paydo bo‘ladi, ongning o‘zi esa subektni bilim olish faoliyati paytida ega bo‘lgan bilimlar jamlanmasidir. Milliy ong va uning til bilan bog‘liqligi ustidan olib borilgan tadqiqotlar boy lingvistik tarixga ega bo‘lib, bular V.Gumboldt, V.Vundt, A.A.Potebnya, etnotilshunoslar, L.Veysgerber va boshqalar olib borgan ilmiy taqdiqotlarda uchraydi.

Oxirgi paytlarda “lisoniy ong” degan tushuncha keng tarqalmoqda va u asosan tilshunos, madaniyatshunos, etnograf va shu kabilar tomonidan ishlatilmoqda.

Masalan: Lisoniy ongning etnomadaniy xususiyatlari.¹⁹ M. 1996; Lisoniy ong: uning shakllanishi va ishlatilishi. M.,1998; Tilli Lisoniy ong va dunyo tasiri. M.2000 va boshq. Shuningdek, bu sohada olib borilgan tadqiqotlar “Til va milliy anglash” (1.soni, Voronej, 1998; 2.soni, Voronej, 1999, 3.soni, Voronej, 2002, hamda “Til va milliy ong. Nazariya va metodologiya masalalari kalliktiv monografiyasi. Voronej, 2002) to‘plamlarida chop etilgan.

“Lisoniy ong” atamasi biror faktni belgilash uchun moddiylashtirilishi samarali natijalarga olib kelmaydi. Bu holatda u masalaga yangicha yondashmaydi va “Lisoniy ong” ning o‘ziga hos xususiyatini topib bera olmaydi. Shu bilan birga, haligacha lingvistika va psixolingvistikada inson nutqi faoliyati, til haqidagi bilimlar majmuini ta‘minlab beruvchi nutqning psixik mexanizmlari atama sifatida kiritilmagan.

¹⁹ Reformatitskiy V.V. Vvedeniye yazykoznanije. M. Prosvesheniye. 1967

Adabiyotlar:

1. Axmanova O.S. Slovar lingvitichiskiy terminov, M. Se. 1966.
2. Reformatitskiy V.V. Vvedeniye yazikoznaniye. M. Prosvesheniye. 1967
3. G'ofurova M. O'zbek tilidagi varvarizmlarning funksional- semantik tahlili// Ilm sarchashmalari. - Urganch, 2019.
4. Oxford Advanced American Dictionary. 2020. Oxford University Press
5. <https://new.tdpu.uz/articles>
6. <https://library-tsul.uz/category/ilmiy-maqolalar/>